



O'ZBEK SAN'ATIDA TEATRNING O'RNI

Sultonov Dostonbek

O'zDSMI FMF "Dramatik teatr rejissorligi" 2-bosqich talabasi

E-mail: sultonovdoston07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek teatri haqida, uning yurtimiz san'atida tutgan o'rni haqida hikoya qilinadi.

Kalit so'zlar: Teatr, sahna, aktyor, ssenariy, dramaturg, rejissor, M.Behbudiy, truppa, repertuar, iste'dod.

Bizga ma'lumki, so'nggi yillarda Yurtimizda bir qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bu o'zgarishlar har bir sohani o'z ichiga qamrab olmoqda. Shu jumladan, madaniyat va san'at sohalarida ham sezilarli darajada ishlar amalga oshirilyapti. Yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Teatr – san'at turi; uning o'ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san'atida ham boshqa san'atlarda bo'lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatrning o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri bu sahna nutqidir. Har bir aktyor o'ziga berilgan rolni ijro etish uchun pyesadagi so'zlarni o'zlashtirib ollar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarida turib uning nutqiy tavsifini, harakatlarini yaratib boshqa personajlar bilan muloqotga kirishadi. Sahna nutqi xarakterlarining ochilishida, asar mazmuni, konfliktining yoritilishida muhim ahamiyatga ega. Teatr san'ati ham madaniy meros sanalib bugungi kunga qadar yetib kelgan muqaddas kitoblar va mumtoz adabiyot namunalariga asoslangan asarlarning sahna san'ati taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir. Milliy madaniy merosning teatr san'ati va yozma yodgorliklardek ikki ulkan hodisaning o'zaro munosabatlari, san'atlarning o'zaro birikuvi (integratsiyasi) hamda biri ikkinchisidan quvvat olib, yangi badiiy kashfiyotlarni yuzaga keltirishi masalalari azaldan ahamiyatli hisoblangan. Teatr va mumtoz adabiyot namunalarining birikishi ko'plab ijobiy xususiyatlarni yuzaga keltiradi. Bunda falsafiy-romantik yo'nalishni tiklash, sahnada yangrayotgan so'zning beqiyos qudratini ko'rsatish, umumbashariy mavzular borasida fikr-mushohada yuritish imkonini yanada kengaytiradi.

O'tmishga nazar tashlasak, bizga shu ma'lumki, Turkiston jadidchilik harkatining asoschisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning: „Teatr ibodatxonadir,“ degan mashhur



iborasi qanchalik o'rinli ekanligini bugungi kunda ham anglashimiz mumkin. Sababi shuki, teatr-tarbiya mskani, bu dargohda spektakllar tomosha qilib inson o'ziga ma'naviy ozuqa oladi, oq va qorani farqiga borishni, ko'proq insonlarga yaxshilik qilishni o'rganadi hamda madaniy hordiq oladi. Yosh avlodning ongiga yoshligidan bu san'atning mayda bo'g'inlaridan boshlab sekin asta singdiriladi. Masalan, kelajak avlod tarbiyasini Maktabgacha bo'lgan ta'lim tashkilotlarida ya'ni bog'chalarda ertak sahnalarini ko'rsatish orqali, maktab yoshidagi va hattoki institut talabalariga ham o'zlarinig yoshlariga va aqliy salohaiyatlariga moslab teatrda turli mavzudagi spektakllar namoyish qilish orqali yoshlarimizning tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yib borsak bo'ladi. Negaki, muhtaram Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, bugun tarbiyani Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlashimiz kerak. Teatr sohasini yanada rivojlantirish uchun, ta'lim tashkilotlari va maktablarda teatr to'garaklari tashkil etilib, ularni rivojlantirish uchun kichik sahna ko'rinishlari, sahna asarlarini sahnalashtirib o'quvchilarga ko'rsatishimiz va bu to'garaklarga yordam berish, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'nalishlar ko'rsatish maqsadida teatr aktyorlarini jalb qilish ustoz shogird an'anasini davom ettirishimiz lozim. Jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'limda bolalarni maktabga tayyorlash uchun yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Ulardan biri maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdir.

Milliy mustaqillikka erishganimizning yana bir natijasi shu bo'ldiki, jahon tarixida katta o'rin tutgan o'zbek xalqining ma'naviyati, madaniyati va san'ati qayta jonlandi. Iqtisodiy ijtimoiy ma'naviy, ma'rifiy, madaniy yuksalish yo'lida har tomonlama mukammal o'ylangan islohotlar amalga oshirildi. O'zbek milliy teatr san'ati davrlari silsilasida qator bosqichlardan o'tib, nihoyat o'z an'anaviy shaklini topishga erishmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2020-yil 26-martdagi madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni jumladan teatr faoliyatini rivojlantirish tizimida qator islohotlar va yangiliklar uchun muhim qonuniy asos bo'ldi. Shu o'rinda qayt etish joizki teatr san'ati ravnaqida tajribali mutaxassislar bilan birgalikda yosh kadrlarni ham tobora ortib bormoqda.

Milliy mustaqillikka erishganimizning yana bir natijasi shu bo'ldiki, jahon tarixida katta o'rin tutgan o'zbek xalqining ma'naviyati, madaniyati va san'ati qayta jonlandi. Iqtisodiy ijtimoiy ma'naviy, ma'rifiy, madaniy yuksalish yo'lida har tomonlama mukammal o'ylangan islohotlar amalga oshirildi. O'zbek milliy teatr san'ati davrlari silsilasida qator bosqichlardan o'tib, nihoyat o'z an'anaviy shaklini topishga erishmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2020-yil 26-martdagi madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni jumladan teatr faoliyatini rivojlantirish



tizimida qator islohotlar va yangiliklar uchun muhim qonuniy asos bo'ldi. Shu o'rinda qayt etish joizki teatr san'ati ravnaqida tajribali mutaxassislar bilan birgalikda yosh kadrlarni ham tobora ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytish kerakki, Hamza nomidagi teatrning 90-yillardagi faoliyati misolida teatr san'ati taraqqiyotida muhim tamoyillarda bilan bir qatorda ayrim ziddiyatlari ham o'z ifodasini topdi. Teatr jamoasining yutuqlari singari kamchiliklari ham mamlakatimiz teatr san'ati ravnaqiga bevosita ta'sir ko'rsatib keldi. Bu borada teatr jamoasi hamisha o'ziga xos betakror ijodiy uslubiga ega bo'lgani diqqatga sazovordir. Bu dargohda o'ziga xos aktyorlik maktabi shakllangan. Uning ijodiy jamoasi mamlakatimizda hamon yetakchilik qilmoqda. Mazkur teatr ijtimoiy va ma'naviy hayotimizda uzoq vaqt yetakchi o'rin tutib, teatr san'atining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Milliy san'atning boshqa dorilfunun teatrlari uchun ibrat namunasi bo'lib keldi. Bu ijodiy jamoaga 1960-80-yillarda To'la Xo'jayev, Aleksandr Gezburg, Bahodir Yo'ldashev, Rustam Hamidov singari iste'dodli rejissorlar yetakchilik qiladilar. Ular teatrni dastlabki avlodga mansub benazir rejissor va aktyorlar boshlagan yuksak badiiy an'analar davom ettirish bilan bir qatorda yanada rivojlantirdilar. Jahon va milliy mumtoz asarlar, O'zbekiston birinchi marta aynan shu san'at dargohida sahnalashtirdi. Teatr ijodiy jamoasining butun o'zbek teatr san'ati ravnaqiga ta'siri, milliy madaniyatimizda tutgan o'rnini beqiyos ekanligini ko'rsatib o'tishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'ra Mahmudov, Sahna kompozitsiyasining alifbosi, Toshkent-2006y.
2. Xoliqulova G. Sahna nutqi. Toshkent – 2007 y.
3. Boltaboeva U. Sahna nutqi. Toshkent, INNOVATION-ZIYO, 2019.
4. Qurbonov, M. (2021). AKTYORLIK MAHORATIDA KECHINMA SAN'ATI. Oriental Art and Culture, (7), 26-36.